

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagи “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to‘g‘risida PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlashga qaratilgan “O‘zagroinspeksiya”da belgilangan ustuvor vazifalar bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan
MA’LUMOT**

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
25-maqсад: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash.					
1.	68.	Ayollarni tazyiq hamda zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoyalash.	Inspeksiya tizimidagi mehnat jamoalarida 25-noyabr “Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni” munosabati bilan zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha davra suhbatlari va muloqotlar tashkil etish.	2024-yil noyabr	Bajarilmoqda. Inspeksiya tizimidagi mehnat jamoalarida 25-noyabr “Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni” munosabati bilan zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha davra suhbatlari va muloqotlar tashkil etish bo‘yicha ishlar o‘z muddatlarida bajarilishi bo‘yicha ishlar tashkil etilgan.
38-maqсад: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash					
2.	103.	Yoshlar kitobxonlikni qilish.	orasida targ‘ib <ol style="list-style-type: none"> Yoshlarning bilim olishga va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish maqsadida “Kitob - ko‘ngil bulog‘i” tanlovlarini o‘tkazish. “Kitob - kamolot kaliti” kitob ko‘rgazmasini tashkil etish. 	2024-yil davomida	Bajarilmoqda. 2024-yil 30-iyun kuni “Yoshlar kuni” munosabati bilan iyun oyi davomida Inspeksiyaning hududiy boshqarmalarida “Kitob - kamolot kaliti” shiori ostida kitob aksiyasi o‘tkazildi, aksiya doirasida hududiy boshqarma va tuman bo‘limlarida tashkil etilgan ma’naviyat burchaklari uchun xodimlar

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					<p>tomonidan mutolaa uchun kitoblar jamlanmalari taqdim etildi.</p> <p>Inspeksiya xodimlarini mutolaaga chorlash va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ilm-ma'rifatini yanada boyitish maqsadida, «O'zagroinspeksiya»ning Navoiy viloyat boshqarmasida kutubxonasi tashkil etildi. Kutubxonada 100 dan ortiq nomdag'i huquqiy, siyosiy, badiiy hamda qishloq xo'jaligi sohasiga oid kitoblar xodimlarning siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirishlari hamda o'qib o'rganishlari uchun olib kelindi.</p> <p>Inspeksiya tizimida kitobxonlikni targib etish maqsadida joriy yilning 21-avgust kuni "Eng namunali hududiy boshqarma" ko'rik tanlovi tashkil etildi.</p> <p>Shuningdek, Inspeksiya huzuridagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatni baholash markazi" davlat muassasasida ushbu yo'nalishda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda uchrashuv tashkil etildi.</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish					
3.	9	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 100 trln so‘mdan oshirish.	<p>1. Korxonalarda paxta texnik chigitini to‘liq texnologik siklda maqsadli qayta ishlanganligi hamda ularning mahsulot sifatini tasdiqlovchi gigiyenik xulosa va muvofiqlik sertifikatlariga ega ekanligi ustidan nazorat olib borish.</p> <p>2. Ichki bozorni sifatli un mahsulotlari bilan uzlusiz ta’minlash maqsadida tadbirkorlik sub’yektlarida un ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligi, texnologik jarayonlar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq yoki muvofiq emasligi ustidan nazorat olib borish.</p>	2024-yil davomida	<p>Bajarilmoqda. 2024-yilning o‘tgan davrida jami 39 ta yog‘-moy korxonalarida tekshirishlar o‘tkazildi. Unga ko‘ra 17 ta paxta texnik chigitini qayta ishlaydigan yog‘-moy korxonalar qonunchilik talablarga muvofiq faoliyat yuritayotganligi aniqlanib bu haqdagi ma’lumotlar Inspeksianing xati bilan Respublika tovar xomashyo birjasiga yuborildi, 22 ta korxona faoliyati esa belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlandi, aniqlangan kamchilik va qonunbuzilishlar yuzasidan korxonalarga nisbatan jami 25 ta ta’sir choralar (19 ta yozma ko‘rsatma, 6 ta ogohlantirish) ko‘rildi.</p> <p>Shuningdek, ichki bozorni sifatli un mahsulotlari bilan uzlusiz ta’minlash maqsadida tadbirkorlik subyektlarida un ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligi, texnologik jarayonlar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq yoki muvofiq emasligi ustidan nazorat olib borish</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					bo'yicha joriy yilning sentabr oyida 4 ta tadbirkorlik subyektidan murojaat kelib tushgan murojaatlarga asosan un ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi, texnologik jarayonni tashkil etish belgilangan talablarga mos kelishi, mahsulot sifatini nazorat qilish bo'yicha laboratoriylar faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilganligi Inspeksiya tomonidan o'rganilib, texnologik jarayonlari belgilangan talablarga to'liq javob berishi aniqlandi va tegishli xulosalar rasmiylashtirildi hamda Vazirlar Mahkamasiga va Iqtisodiyot va moliya vazirligiga 2024-yil 24-sentyabr kuni 01/2-11-2140-sonli xat kiritildi.
54-maqsad: Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish					
4.	46.	Hosildorlikni paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 sentnerga , g'alla bo'yicha 80-100 sentnerga yetkazish.	<p>1. Xorijdan olib kelingan paxtaning nav va duragaylarning aynan belgilangan xududlarda ekilishi ustidan nazorat o'rnatish.</p> <p>2. Paxta va g'alla yetishtiriladigan maydonlarga hosildorligi yuqori bo'lgan navlarni joylashtirish, ekish tadbirlarni muddatlarida sifatli amalga oshirilishini nazorat qilish;</p>	<p>2024-yil may</p> <p>2024-yil avgust</p>	Bajarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabrdagi "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-391-sonli

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
			<p>3. 2024 yil hosili uchun yetishtiriladigan paxta va g'alla maydonlarida oziqlantirish va boshqa agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish.</p>	<p>2024-yil aprel, avgust.</p>	<p>qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joriy yilda 4 808 ta xo'jalik subyektlarining 96 ming hektar maydonlarida xorijiy g'o'zaning nav va duragaylari ekilib, doimiy ravishda agrotexnik tadbirlar amalga oshirildi.</p> <p>Ushbu maydonlar ichidan yuqori hosil beradigan navlar tanlab olinib, kelgusi yil hosili uchun sifatli va kafolatlangan urug'lik olish maqsadida, tuman aprobatsiya komissiyalari tomonidan aprobatsiya ko'rigi o'tkazildi hamda aprobatsiya ko'rigi yakuniy natijalariga ko'ra 7,9 ming hektar maydonlar yaroqli deb topilib, aprobatsiya dalolatnomalari rasmiylashtirildi.</p> <p>Bugungi kunda hududlarda aprobatsiya ko'rigi yakunlangan bo'lib, yaroqli maydonlardan urug'lik jamg'arish ishlari amalga oshirilmoqda.</p> <p>Bajarildi.</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					<p>2024-yil paxta hosili uchun Respublika bo'yicha jami 1 mln 12 ming 445 hektar maydonlarga g'oz'a ekilgan bo'lib, chigit ekilgan barcha maydonlarda agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi to'liq nazoratga olindi.</p> <p>Joriy yilda g'oz'a maydonlarida agrotexnik tadbirlarni o'tkazilishi yuzasidan jami 16 138 ta nazorat tadbirlari o'tkazilib, o'tkazilgan tadbirlar davomida 22 189 ta fermer xo'jaliklarida 151 199 ta holatda qonunbuzilish holatlari aniqlangan va ularni bartaraf etish yuzasidan yuridik shaxslarga 351 ta taqdimnomalar kiritilib, xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishlarni to'g'ri tashkil qilish yuzasidan 15 787 ta ogohlantirish xatlari berilishi ta'minlandi.</p> <p>Bugungi kunda, Respublika bo'yicha yetishtirilgan paxta hosilini yig'ishtirib olish ishlari amalga oshirilmoqda.</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
5.	52.	Meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini kamida 2,5 mlrd. dollarga yetkazish.	<p>1. “In-vitro” labarotoriyalarida yetishtirilgan 12 mln. dona ko‘chatlarni sertifikatlash uchun namunalar olish va ekinboplrik sifatini tahlil qilish.</p> <p>2. Ekinboplrik sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvofiqligi to‘g‘risida sertifikatlangan ko‘chatlarni meva-uzum etishtiruvchilarga yetkazib berilishini nazorat qilish</p>	2024-yil mart, noyabr	<p>Bajarilmoqda. “In-vitro” labarotoriyalarida yetishtirilgan ko‘chatlarni ekinboplrik sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvofiqligi to‘g‘risida sertifikatlashtirish hamda bog‘ va tokzor barpo etuvchi subyektlarga ko‘chatlarni o‘z muddatlarida yetkazib berilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilgan.</p> <p>Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan 13 ta “In-vitro” labarotoriyalarida yetishtirilgan ko‘chatlarni ekinboplrik sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvofiqligi bo‘yicha sertifikatlashtirishni amalga oshirish yuzasidan buyurtmachilar tomonidan arizalar kelib tushmadi, tadbirkorlar tomonidan buyurtmalar kelib tushganda, ko‘chatlardan namunalar olinib o‘z muddatida sertifikatlashtirish ishlari amalga oshiriladi va tegishli tartibda axborot kiritib boriladi</p>
6.	54.	Tuproqni himoyalovchi agrotexnologiyalardan	1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan qat’iy belgilangan maqsadlarda foydalanishini nazorat qilish.	2024-yil may	<p>Bajarildi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan qat’iy belgilangan</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
		foydalanimishi, yer ustki qismini doimo qoplama bilan qoplanishi, tuproq ifloslanishi hamda mikroflorasi yo'qolishining oldini olish monitoringini yo'lga qo'yish.	2. Tuproq unumdorligining pasayishiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirilmaslik holatlarini nazorat qilish.		<p>maqsadlarda foydalanimishini nazorat qilish, hamda tuproq unumdorligining pasayishiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirilmaslik holatlarini nazorat qilish ustidan soha mutahassislari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalami bajarish yuzasidan xam bir qator ishlar amalga oshirildi.</p> <p>2024-yilning o'tgan davrida jami 1 521 ta holatda 304,7 hektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarida yer qonunbuzilish holatlari qayd etilganligi aniqlandi.</p> <p>Shundan sug'oriladigan yerlarda 274,2 hektar, lalmi yerlarda 1,6 hektar, yaylov yerlarda 25,5 hektar va 3,4 hektar bo'z yerlarda yer qonunbuzilish holatlari qayd etilgan va bu qonunbuzilish holatlari oqibatida qishloq xo'jaligi yerlari o'zboshimchalik bilan qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqarilganligi sababli, ularga nisbatan jami 206 milliard so'mdan ortiq miqdorida qishloq xo'jaligiga yetkazilgan zarar hisoblangan.</p> <p>Aniqlangan yer qonunbuzilish holatlaridan 871 tasi prokuratura</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					organlariga, 370 tasi IIV hududiy bo‘linmalariga va 229 tasi boshqa tashkilotlarga chora ko‘rish uchun yuborilgan, 12 ta holatda Inspeksianing hududiy boshqarmalari tomonidan yerdan foydalanuvchilarga ogohlantirish xatlari yuborilgan.
55-maqсад: Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish					
7.	15.	Xalqaro ekspertlar va yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalarni jalg qilgan holda O‘zbekiston — 2030 strategiyasidan kelib chiqib, Qishloq xo‘jaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son Farmoniga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjat loyihasi.	“O‘zagroinspeksiya”da xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo‘yicha takliflar loyihasini ishlab chiqish va Qishloq xo‘jaligi vazirligiga kiritish.	2024-yil iyul	Bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga 2024-yil 19-iyul kuni 01/3.1-5-1588-sonli xat kiritildi.
57-maqсад: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish					

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
8.	66.	2024-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi xizmatlar va servislар sonini 700 taga yetkazish.	<p>1. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali ko'rsatishni yo'lga qo'yish reja-grafigini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tasdiqlangan reja-grafik asosida xizmatlar va servislarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy qilib borish.</p> <p>3. “my.gov.uz” orqali qishloq xo'jaligi texnikalarni joyiga borib texnik ko'rikdan o'tkazish xizmatini joriy etish.</p>	<p>2024-yil mart</p> <p>2024-yil sentyabr</p> <p>2024-yil noyabr</p>	<p>Bajarildi.</p> <p>“O'zagroinspeksiya” tomonidan “my.gov.uz” orqali shaxslarning murojaatlari asosida qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalarini ro'yxatdan va qayta ro'yxatdan o'tkazishda texnikani turgan joyiga borib mobil texnik ko'rik jihozlari yordamida texnik ko'rikdan o'tkazish xizmati faoliyati joriy qilindi.</p>

77-maqsad: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtaсидagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish

9.	9.	Davlat xizmatlarini ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslarga qo'shimcha qulayliklar yaratish.	<p>1. Yagona interaktiv davlat xizmati portal orqali kelib tushgan Inspeksiya tomonidan texnika yo'nالishida ko'rsatiladigan 6 turdag'i davlat xizmatlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.</p> <p>2. Internet axborot tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarda Inspeksiya mutahassislar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga Yagona interaktiv davlat xizmati portal orqali davlat xizmatlaridan foydalanish afzalliklari bo'yicha keng jamoatchilika tushuntirib borish.</p>	2024-yil davomida	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>Joriy yilning o'tgan davrida “O'zagroinspeksiya”ning rasmiy veb sayti va telegram kanalida Yagona interaktib davlat xizmatlari portalni orqali murajaatlar qilish imkoniyati yaratilganligi to'g'risida 4 ta maqola chop etildi.</p> <p>Bundan tashqari, hududlarda o'tkazilayotgan seminar va davra suhabatlarida jismoniy va yuridik shaxslarga Inspeksiyaning Texnika holatini nazorat qilish mutaxassislari tomonidan Inspeksiya tomonidan ko'rsatiladigan 6 turdag'i davlat xizmatlaridan foydalanish uchun</p>
----	----	--	---	-------------------	---

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali murojaat qilish imkonini yaratilganligi va uning afzalliklari to‘g‘risida tushunchalar berib kelinmoqda.
81-maqsad: Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish					
10.	17.	Davlat fuqorolik xizmatchilarini uzlusiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish.	“O‘zagroinspeksiya” xodimlarini onlayn va oflayn tarzda malaka oshirishlarini tashkil etish.	2024-yil davomida	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>Xodimlar malakasini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Davlat boshqaruvi akademiyasida 2024-yilning o‘tgan davrida A.Mirzaaxmedov, F.Mamasoliyevlarning ishtiroki ta’mindan.</p> <p>Bundan tashqari, Inspeksiya markaziy apparati xodimlarining davlat tilida ish yuritishida savodxonligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha o‘quv kurslarini tashkil etish maqsadida “Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi” bilan hamkorlikda xodimlarni ishdan tashqari vaqtlarida masofaviy tarzda joriy yilning aprel oyida 12 nafar va may oyida 7 nafar xodimlarning malakalari oshirildi.</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					<p>Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 6-iyundagi 16-1-1016-soni xatiga asosan joriy yilning 19-22-iyun kunlari Davlat boshqaruvi akademiyasida uch bosqichda “Yangi O‘zbekistonda zamonaviy kadrlarni tayyorlashda yangi kompetensiyalarni shakllantirish” mavzusida bo‘lib o‘tgan o‘quv-amaliy seminarda U.O‘tbosarovning ishtiroki ta’minlandi.</p> <p>Bundan tashqari, joriy yilning 18-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, senator R.E.Siddiqov, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati, Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi a’zosi A.Q.To‘laboyev, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Davlat va huquq instituti o‘qituvchisi, yuridik fanlari doktori R.T.Hakimov hamda “O‘zagroinspeksiya” va “Qishloq</p>

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
					<p>xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi”ning barcha rahbar va xodimlari ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-37-sonli Farmonining mazmun-mohiyatini tushuntirish va bu borada “O‘zagroinspeksiya” tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida seminar o‘tkazilib, tadbir ishtirokchilariga strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan taqdimot orqali tushuntirishlar berildi.</p> <p>Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining hr.agro.uz xodimlar uchun masofaviy o‘qitish tizimi orqali “O‘zagroinspeksiya” tizimida ishlayotgan barcha xodimlari uchun masofaviy malaka oshirish kurslari tashkil etildi va barcha xodimlarning ishtiroki ta’minlandi.</p>